MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARINING MADANIY-GUMANITAR MASALALARI

Nuriddin Qolqanov

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

dotsenti, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining madaniy-gumanitar jihatlari tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida mintaqaviy hamkorlikning ahamiyati ortib borayotgan bir paytda, madaniy va ijtimoiy aloqalar integratsiyaning muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosati doirasida mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilgani yoritiladi. C5+ formatlari va madaniy-gumanitar hamkorlikning “yumshoq kuch” vositasi sifatidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, integratsiya, madaniy-gumanitar hamkorlik, mintaqaviy siyosat, C5+ formatlari, yumshoq kuch, xalq diplomatiyasi, mintaqaviy identiklik.*

Abstract. This article analyzes the cultural and humanitarian dimensions of integration processes in Central Asia. In the context of globalization, regional cooperation is becoming increasingly important, and cultural and social ties are considered key factors of integration. It also examines the role of Shavkat Mirziyoyev’s foreign policy in elevating regional cooperation to a new level. The significance of C5+ formats and cultural-humanitarian cooperation as instruments of “soft power” is emphasized.

Keywords: *Central Asia, integration, cultural and humanitarian cooperation, regional policy, C5+ formats, soft power, public diplomacy, regional identity.*

Globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida mintaqaviy integratsiya xalqaro munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Markaziy

Osiyo mintaqasi geosiyosiy, geoiqtisodiy va sivilizatsion jihatdan muhim hudud sifatida integratsiya jarayonlarining faol subyekti bo‘lib bormoqda. Ushbu jarayonda madaniy-gumanitar hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u davlatlar o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarning ijtimoiy asosini mustahkamlaydi.

Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining madaniy-gumanitar jihatlari mintaqa davlatlari – O‘zbekiston Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik tizimida muhim o‘rin egallaydi. An’anaviy ravishda integratsiya masalalari iqtisodiy va siyosiy omillar doirasida tahlil etilgan bo‘lsa-da, zamonaviy yondashuvlarda madaniy-gumanitar hamkorlik ushbu jarayonlarning barqarorligi va samaradorligini ta’minlovchi asosiy komponentlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zero, mintaqa xalqlarini umumiy tarixiy taraqqiyot, o‘xshash madaniy meros, diniy qadriyatlar va til yaqinligi birlashtirib turadi.

Madaniy-gumanitar integratsiya tushunchasi davlatlar o‘rtasida madaniyat, ta’lim, fan, san’at va ijtimoiy sohalardagi hamkorlikni anglatadi. U integratsiyaning “yumshoq” komponenti sifatida iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlovchi omil hisoblanadi.

Sovet davridan keying bosqichda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari murakkab va ziddiyatli kechdi. Bu holat, avvalo, chegaraviy nizolar, suv-energetika resurslaridan foydalanishdagi kelishmovchiliklar, transport-kommunikatsiya tizimidagi uzilishlar hamda milliy-etnik ziddiyatlar bilan izohlanadi.

Biroq so‘nggi yillarda, ayniqsa O‘zbekiston Respublikasining yangilangan tashqi siyosiy kursi hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ochiqlik va konstruktiv muloqot tamoyillari natijasida mintaqaviy hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbarida so‘zlagan nutqida quyidagilarni ta’kidlagan edi: “So‘ngi yillarda Markaziy Osiyo yaxshi qo‘shnichilik, barqarorlik, o‘zaro hamkorlik va

rivojlanish yo‘lidan bormoqda… Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o‘ziga xoslikni anglash tuyg‘usi birlashtirmoqda va bu tuyg‘u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo‘limiz yo‘q v abo‘lishi ham mumkin emas!”. [2]

Mazkur jarayonda madaniy-gumanitar aloqalar o‘ziga xos “yumshoq kuch” (soft power) va “xalq diplomatiyasi” vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy-madaniy yaqinlashuvni jadallashtirish hamda “Markaziy Osiyo identifikatsiyasi”ni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, madaniy integratsiya iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

- umumiy tarixiy taraqqiyot (Buyuk Ipak yo‘li sivilizatsiyasi);
- madaniy va diniy yaqinlik (islomiy qadriyatlar);
- til va mentalitetdagi o‘xshashliklar;
- ijtimoiy-madaniy an’analar umumiyligi. Mazkur omillar mintaqada integratsiya uchun tabiiy asos yaratadi.

Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining faollashuvi bevosita Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosiy strategiyasi bilan bog‘liq. 2016-yildan boshlab O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan ochiq va konstruktiv muloqot siyosatini amalga oshirdi. Ushbu siyosat quyidagi natijalarni berdi:

- chegaraviy muammolarni hal etishda ijobiy siljishlar;
- savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi;
- transport-kommunikatsiya tizimlarining tiklanishi;
- madaniy-gumanitar aloqalarning jadallashuvi.

Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari institutsional muloqot platformasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu

uchrashuvlarnini birida O‘zbekiston Prezidenti Shavka Mirziyoyev quyidagi fikrni bildirgan edi: “Eng asosiysi – Markaziy OSiyo barqarorlik va birdamlik mustahkamlanmoqda. Bizning mintaqamiz iqtisodiy o‘sish va investitsion faollik markazlaridan biriga aylanmoqda, G‘arbni Shar va Shimolni Janub bilan bo‘laydigan transport xabi bo‘lishdek tarixiy vazifani yana o‘z zimmasiga olmoqda”. [2]

Zamonaviy bosqichda Markaziy Osiyo integratsiyasi nafaqat ichki, balki tashqi o‘lchamga ham ega bo‘lib bormoqda. Bu jarayonda C5+ formatlari muhim o‘rin tutadi. Mazkur platforma Markaziy Osiyo davlatlari va yirik global hamkorlar o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlaydi.

C5+ formatlarining asosiy yo‘nalishlari:

- iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik;
- xavfsizlik va barqarorlik;
- ekologiya va iqlim o‘zgarishi;
- ta’lim va madaniyat.

Ushbu mexanizm Markaziy Osiyo davlatlarining yagona mintaqa sifatida shakllanishiga xizmat qiladi hamda ularning xalqaro maydondagi pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, madaniy-gumanitar hamkorlik integratsiya jarayonlarida ustuvor yoki kamida parallel yo‘nalish sifatida rivojlanishi lozim. Chunki aynan ushbu soha xalqlar o‘rtasida bevosita muloqotni ta’minlab, o‘zaro ishonch va ijtimoiy kapitalni shakllantiradi.

Mintaqada madaniy-gumanitar integratsiya quyidagi shakllarda amalga oshirilmoqda:

Madaniy almashinuvlar: madaniyat kunlari, festivallar, ko‘rgazmalar va san’at loyihalari orqali xalqlar o‘rtasidagi aloqalar rivojlanmoqda.

Ta’lim va ilm-fan: talabalar almashinuvi, qo‘shma ta’lim dasturlari va diplomlarni o‘zaro tan olish tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Yoshlar siyosati: yoshlar forumlari, yetakchilar platformalari va ijtimoiy loyihalar integratsiyaning muhim omiliga aylanmoqda.

Turizm va sport: ichki turizm va mintaqaviy sport tadbirlari xalqlar o‘rtasidagi yaqinlikni kuchaytirmoqda.

Mazkur jarayonlar xalqaro tashkilotlar, xususan, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ushbu tashkilot madaniy-gumanitar hamkorlikni mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashning muhim omili sifatida baholaydi.

Shu bilan birga, mintaqaviy integratsiya jarayonlarida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, hamkorlikning deklarativ xarakterga ega bo‘lishi, amaliy loyihalarning yetarli emasligi, davlatlarning suverenitetni ustuvor qo‘yishi, shuningdek, tashqi geosiyosiy omillarning ta’siri integratsiya sur’atlarini sekinlashtirmoqda. Natijada, hozirgi bosqichda integratsiya ko‘proq “hamkorlik modeli” doirasida rivojlanmoqda.

Kelgusida esa “Markaziy Osiyo – 2040” kabi strategik tashabbuslar doirasida madaniy identifikatsiyani mustahkamlash, yagona axborot makonini shakllantirish, ta’lim va yoshlar almashinuvini kengaytirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Bu jarayonda O‘zbekistonning tashabbuskor va yetakchi roli alohida e’tiborga loyiqdir.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining madaniy-gumanitar jihatlari “yuqoridan pastga” emas, balki “pastdan yuqoriga” tamoyili asosida, ya’ni xalqlar o‘rtasidagi bevosita aloqalar orqali shakllanmoqda. Bu esa mintaqada barqaror rivojlanish, o‘zaro ishonch va xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – vatanmiz. –

Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – B. 86; 106.

3. Kolkanov, N. (2024). The Development of Family Rights In Islam and Its Social Importance. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, *5*(3), 95-102.
4. Nazirov, M., & Qolqanov, N. (2024, May). The Optimized Algorithm Creation for the Whole HE System. In *2024 4th International Conference on Advance Computing and Innovative Technologies in Engineering (ICACITE)* (pp. 1588-1592). IEEE.
5. Qolqanov, N. (2026). O‘zbekiston Respublikasining mintaqada tinchlik, do‘stlik va hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga qaratilgan islohotlari. *Global Science Review*, *19*(2), 244-247.